

QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020-yil 1-may holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Viloyatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha shahar va tumanlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi ma'lumotlar bazasi asosida 2020-yil 1-may holatiga ko'ra, (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiqilimoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

11 311



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

1 560



Oilaviy korxonona

175



Unitar korxonona

9 056



Xususiy korxonona

45




Aksiyadorlik jamiyati

339




Boshqalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat
birlik



xususiy korxonona
birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-may holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-may holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-aprel oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-aprel oylarida, birlikda)






Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar-aprel oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020-yilning yanvar-aprel oylarida 1 608 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 879 ta, xususiy korxonalar – 412 ta, oilaviy korxonalar – 231 ta, muassasalar – 33 ta va boshqalar – 53 tani tashkil etdi.

Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi faoliyati bilan shugʻullanayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi (1-may holatiga koʻra)




Sanoat yoʻnalishida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-may holatiga koʻra, birlikda)



2020-yil 1-may holatiga koʻra, sanoat korxonalar va tashkilotlari soni 3 490 tani tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 16,7 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari koʻpayishining asosiy omili boʻlib (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 17,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,1 %), togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 16,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 7,0 %), elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash – 27,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,7 %) va suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 9,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,2 %) oʻsishidir.


Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-may holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 126 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,8 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan 11,4 % ga (jami qurilishdagi ulushi 69,9 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 39,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 8,6 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 13,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 21,5 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)

2020-yil 1-may holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 6 527 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,3 % ga oshgan. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 20,7 % ga (jami savdodagi ulushi 69,3 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 12,9 % ga (jami savdodagi ulushi 23,2 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 28,8 % ga (jami savdodagi ulushi 7,5 %) o'sishidir.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat
599 ta



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash
16 ta



Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
11 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



79

yashash bo'yicha xizmatlar




1 141

oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020-yil 1-may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonona va tashkilotlar soni 1 220 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 18,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,5 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 5,3 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,5 %) o'sishidir.


Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-may holatiga ko'ra, axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 296 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,5 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 8,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 4,1 %), axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 12,5 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 12,2 %), noshirlik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 6,7 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 27,0 %) dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 16,7 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 2,3 %), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 31,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 28,4 %), aloqa xizmatlarning – 4,1 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 26,0 %) o'sishidir.

Oilaviy korxonalar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-may holatiga ko'ra, 1 560 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 632 taga yoki 68,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 493 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 587 taga yoki 64,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 231 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11 taga yoki 4,5 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-may holatiga ko'ra, 11 311 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 061 taga yoki 22,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 10 964 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 878 taga yoki 20,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 879 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 289 taga yoki 75,3 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-may holatiga ko'ra, 208 tani tashkil etib, ulardan 205 tasi yoki 98,6 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 79 taga yoki 61,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-aprel oylarida viloyatimizda 13 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-aprel oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida o'sish dinamikasi (1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning yillar kesimida o'sish dinamikasi (1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar yillar kesimida o'sish dinamikasi

(1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining yillar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish dinamikasi

(1-may holatiga ko'ra, birlikda)

	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	461	578	906	1 493
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	103	102	158	241
Sanoat	105	160	274	474
Qurilish	9	12	14	15
Savdo	83	93	159	323
Tashish va saqlash	9	10	9	13
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	83	115	183	275
Axborot va aloqa	1	2	7	11
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	10	13	29	31
Boshqa turlar	58	71	73	110

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Shahar va tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Qashqadaryo viloyati	205	149	56
Qarshi sh.	55	45	10
Shahrisabz sh.	5	1	4
tumanlar:			
G'uzor	11	9	2
Dehqonobod	12	9	3
Qamashi	13	8	5
Qarshi	15	9	6
Koson	18	12	6
Kitob	16	11	5
Mirishkor	5	4	1
Muborak	9	7	2
Nishon	15	13	2
Kasbi	5	3	2
Chiroqchi	8	7	1
Shahrisabz	5	4	1
Yakkabog'	13	7	6

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-may holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda Qarshi (20,6 %) va Shahrisabz (6,3 %) shahar, G'uzor (4,7 %), Dehqonobod (4,9 %), Qamashi (6,7 %), Qarshi (7,8 %), Koson (7,7 %), Kitob (6,6 %), Mirishkor (3,3 %), Muborak (3,6 %), Nishon (4,0 %), Kasbi (4,0 %), Chiroqchi (8,4 %), Shahrisabz (4,8 %), Yakkabog' (6,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020-yil yanvar-aprel oylarida, birlikda)


2020-yil yanvar - aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda Qarshi (17,9 %) va Shahrisabz (4,7 %) shahar, G'uzor (4,4 %), Dehqonobod (6,0 %), Qamashi (6,7 %), Qarshi (7,6 %), Koson (6,8 %), Kitob (5,8 %), Mirishkor (3,9 %), Muborak (3,7 %), Nishon (7,3 %), Kasbi (3,9 %), Chiroqchi (11,8 %), Shahrisabz (4,0%), Yakkabog' (5,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining shahar va tumanlar kesimida soni (2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning shahar va tumanlar kesimida soni (2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarni hududlar kesimida taqsimlanganda Qarshi (26,7 %) va Shahrisabz (3,8 %) shahar, G'uzor (4,3 %), Dehqonobod (1,7%), Qamashi (6,8 %), Qarshi (6,8 %), Koson (10,4 %), Kitob (4,4 %), Mirishkor (4,3 %), Muborak (4,7 %), Nishon (3,8 %), Kasbi (4,0 %), Chiroqchi (7,9 %), Shahrisabz (3,8%), Yakkabog' (5,3 %) tumanlari his-sasiga to'g'ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo‘shma korxonalar va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

(2020-yil 1-may holatiga ko‘ra, jamiga nisbatan ulushi, %)




2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning uchinchi muhim yo‘nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o‘sbib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining shahar va tumanlar bo'yicha soni (2020-yilning yanvar-aprel oylarida, birlikda)



2020-yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Qarshi (22,9 %) va Shahrisabz (5,3 %) shahar, G'uzor (8,7 %), Dehqonobod (1,3 %), Qamashi (6,9 %), Qarshi (8,3 %), Koson (6,1 %), Kitob (1,3 %), Mirishkor (0,4 %), Muborak (3,0 %), Nishon (3,0 %), Kasbi (4,3 %), Chiroqchi (17,7 %), Shahrisabz (6,9 %), Yakkabog' (3,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shahar va tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonona va mikrofirmalar soni (2020-yilning yanvar-aprel oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.


Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



The screenshot shows the website of the State Committee for Statistics of the Republic of Uzbekistan (UZSTAT). The main header includes the national emblem and the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI'. Below the header is a navigation menu with categories like 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The main content area is titled 'INTERAKTIV XIZMATLAR / KTYaDR ma'lumotlari'. A dropdown menu is open, listing services such as 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The 'Korxonalar pasporti' option is selected, leading to a form with the following fields: 'STIR kodini kiriting' (with a dropdown menu), 'Rasmdagi kodni kiriting' (with a text input field), and a 'Qidiruv' (Search) button. A sample image of a STIR code '99831k' is shown with the instruction 'Kodni yangilash uchun rasimga bosing'. On the left, there is a 'RASMIY STATISTIKA' sidebar with links to 'E'lon qilish taqvimi', 'Metama'lumotlar', 'Makroko'rsatkichlar', 'Milliy hisoblar', 'Narx va indekslar', and 'Investitsiyalar'. On the right, there is a 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' sidebar with links to 'Aholini ro'yxatga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-relizlar', 'Choraklik natijalar', 'Nashrlar - statistika haqida', and 'Uslubiy materiallar'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining www.qashstat.uz rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:(75) 220-03-98